

TALABALARNING MUSTAQIL TA'LIM OLIISH KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA TAYM MENEJMENT TEKNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH BO'YICHA XORIJIY TAJRIBALAR

*Tillabayeva Guljahon Ilhomjon qizi
Farg'ona politexnika instituti
"Oliy matematika" kafedrasida stajor-tadqiqotchisi*

Annotatsiya: ushbu maqolada talabalarning mustaqil ta'lim olish kompetentligini rivojlantirishda taym menejment texnologiyasidan foydalanish bo'yicha xorijiy davlatlar tajribalari keltirilgan va ilmiy tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: mustaqil ta'lim, taym menejment, vaqt, Eyzenxauzer matrisasi va Kaizen.

Аннотация: в данной статье представлен и научно проанализирован опыт зарубежных стран по использованию технологии тайм-менеджмента в развитии самостоятельной учебной компетентности студентов.

Ключевые слова: самостоятельное образование, тайм-менеджмент, время, матрица Эйзенхаузера и Кайдзен.

Annotation: in this article, the experiences of foreign countries on the use of time management technology in the development of students' independent learning competence are presented and scientifically analyzed.

Key words: independent education, time management, time, Eisenhauser matrix and Kaizen.

Mamlakatimiz ta'lim tizimida bo'lajak o'qituvchilarni raqobatbardosh kadr va kuchli mutaxassis qilib yetishtirish muhim masaladir. Buning uchun uzluksiz ta'lim tizimida talabalarni mustaqil ta'lim olish kompetentligini rivojlantirish zarur. Chunki talabalar mustaqil ta'lim olish jarayonida mustaqilligi, kreativ fikrlashi va dunyoqarashi kengayadi. O'rgangan yangi bilimlarni mustaqil tahlil qilish qobiliyati rivojlanadi. Bu esa hayotdagi har bir o'zgarishlarni to'g'ri baholashga va maqbul qarorlarni qabul qilishiga yordam beradi. Oliy ta'lim muassasalarida talabalarning mustaqil ta'lim olishi zamonaviy o'quv amaliyotining muhim elementi bo'lib, talabalarda mustaqillikni, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish va o'rganilayotgan fanlar bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish imkonini beradi. Mustaqil ta'lim olishni rivojlantiruvchi turli xil metod va texnologiyalar mavjud bo'lib ular orasida taym menejment texnologiyasi bugungi kunda eng dolzarb texnologiyalardan biridir. Chunki talabalar tizimli va tartibli harakat qilishni o'rgansalar yanada samaradorliklari yuqori bo'ladi. Shu bois talabalarning mustaqil ta'lim olish kompetentligini rivojlantirishda taym menejment texnologiyasidan foydalanish talab etiladi.

Mustaqil ta'lim–talabalarning o'z oldilariga kreativ yondashuv asosida turli ta'lim metodlari asosida u yoki bu vazifalarni, maqsadlarni ongli ravishda qo'yishi, o'z faoliyatini rejalashtirishi va uni amalga oshirishi hamda o'zini baholay olish qobiliyatlari bilan aniqlanishidir.

Taym menejment-bu minimal vaqt, energiya va boshqa resurs xarajatlari bilan maqsadga erishish va maksimal natijaga erishish uchun eng samarali texnika va usullardan foydalangan holda o'z faoliyatini, jamoa yoki tashkilot faoliyatini o'z vaqtida oqilona tashkil etishga imkon beradigan texnologiya. [4,10]

Talablarning mustaqil ta'lim olish kompetentligini rivojlantirishda taym menejment texnologiyasidan foydalanish xorijiy davlatlarda turli xil usullar yordamida amalga oshiriladi. Joriy vaqtni tahlil qilish va nazorat qilish uchun butun dunyo bo'yicha mashhur texnikalardan biri bu- Eyzexauzer matritsasi.

D.Eyzexauzer shunday ta'kidlaydi: "Shoshilinch ishlar, eng muhimi emas va muhim narsalar eng shoshilinch emas". Shuning uchun u shaxsiy vaqtni optimallashtirish usuli sifatida "Eisenhower to Do matrix" ni ishlab chiqdi.

Eyzexauzer matritsasi deb ataladigan texnika har qanday yaqinlashib kelayotgan yoki davom etayotgan ishlarni "shoshilinch" va "muhimlik" mezonlari bo'yicha tasniflashdir. [1,15]

Shunday qilib, to'rtta ish guruhi ajratiladi:

1. Muhim va dolzarb masalalar;
2. Muhim va shoshilinch bo'lmagan masalalar;
3. Muhim bo'lmagan va shoshilinch masalalar;
4. Muhim bo'lmagan va shoshilinch bo'lmagan masalalar.

Kvadrat 1. Shoshilinch va muhim – "yong'in" toifasiga kiradigan ishlar. Biz hamma narsani tashlab, olovni o'chirishimiz kerak. Ularni amalga oshirish kechiktirishni talab qilmaydi. Ideal rejalashtirishda matritsaning bu kvadrati bo'sh qolishi kerak, chunki muhim va shoshilinch masalalarning paydo bo'lishi tartibsizlik qilish ehtimoli ko'rsatkichidir. Jadvalning ushbu qismi ko'p odamlarni o'ziga xos dangasalik va yomon ustuvorlik tufayli to'ldiradi. O'z vaqtida boshlanmagan yoki tahlil qilinmagan ikkinchi toifadagi ishlar ushbu toifaga osongina o'tadi.

Kvadrat 2. Muhim va shoshilinch bo'lmagan masalalar - zudlik bilan bajarilishini talab qilmaydigan muhim narsalar. Agar siz ushbu vazifalarni e'tiborsiz qoldirsangiz, vaqt o'tishi bilan bu vazifalar 2-kvadratdan 1-kvadratga o'tadi va siz ularni stress ostida bajarishingiz kerak bo'ladi.

Biroq, ushbu ishlarning "muhim va shoshilinch" bo'lganlar guruhi o'rtasidagi asosiy farq shundaki, agar sizda vakolatli yordamchilar bo'lsa, majburiy monitoring va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xatolarni tuzatish uchun vaqt zaxirasini qoldirib, ba'zi faoliyatlarni topshirishingiz mumkin.

Kvadrat 3. Muhim bo'lmagan va shoshilinch masalalar- yakuniy natija uchun muhim bo'lmagan, lekin darhol hal qilishni talab qiladigan narsalar. Vaqtni tejash nuqtai nazaridan, bu ishlarni o'zingiz qilishingiz juda foydasiz, chunki erishiladigan natija qanchalik to'g'ri bo'lmasin, asosiy faoliyat uchun alohida ahamiyatga ega emas. Bunday masalalar majburiy ravishda topshirilishi kerak va hech qanday holatda ular bilan o'zingiz shug'ullanmasligingiz kerak.

Kvadrant 4. Muhim bo‘lmagan va shoshilinch bo‘lmagan masalalar- vaqtni boshqarish bo‘yicha trenerlar orasida keng tarqalgan ajoyib jumla bilan tavsiflanadigan bu kvadrat -vaqtni isrof qiluvchilardir. Bu kvadratga mos keladigan ishlar va vazifalarni bemalol rad qilishingiz mumkin, chunki ular kerakli daromad keltirmaydi. Bunday vazifalarga suhbatlar, o‘yin-kulgular, barcha turdagi xizmatlarni ko‘rsatish va sizning bevosita maqsadlaringiz bilan bog‘liq bo‘lmagan narsalarni qilish kiradi.

Tanaffus vaqtini belgilashda **“Interval usuli”** samaralidir. Misol uchun, har bir soatni 45 va 15 daqiqalik ikki qismga bo‘lishingiz mumkin. Birinchidan, hech kim yoki hech narsa sizni chalg‘itishiga yo‘l qo‘ymasdan, 45 daqiqa davomida diqqatingizni vazifaga qarating va keyingi 15 daqiqada miyani o‘chirishga harakat qiling, tanaffus qiling. Bu holatda miyaning o‘zi birdaniga yangi g‘oyani chiqarishi mumkin. Intervallarda ishlash diqqatni jamlashni osonlashtiradi. Buning ustiga, tanaffus paytida siz kichik ishlarni qilishingiz mumkin.

Vazifalarni to‘g‘ri bajarishda keng qo‘llaniladigan usullardan yana biri bu- **“Pomodoro”** texnikasidir.

Pomodoro Technique yoki “Pomidor” Texnikasi – vaqtdan samarali foydalanish metodi bo‘lib, belgilangan vazifaga maksimum diqqat e‘tibor bilan, ortiqcha ruhiy bosimlarsiz erishish uchun ishlab chiqilgan. Bu so‘z italyanchasiga pomidor degan ma‘noni anglatib, bu metodni yaratgan Francesco Cirillo dastlab pomidor shaklidagi oshxona soatidan foydalangani uchun shunday atalgan.

Bu texnika juda sodda bo‘lib: belgilangan vazifaga sarflamoqchi bo‘lgan vaqtingizni qisqa, 25 daqiqalik “davr”larga bo‘lib olasiz va xar bir shunday davrdan keyin kichik, 5 daqiqalik tanaffus qilasiz. Ya‘ni, 25 daqiqa ishlab, 5 daqiqa dam olasiz. Xar bir 25 daqiqa “pomodoro” deb ataladi. Keyinchalik bu butun jarayon nomiga aylanib ketgan. Xar 4 ta “pomodoro” keyin, kattaroq, 15-20 daqiqalik tanaffus qilinadi va ish jarayonidagi kamchilik va yutuqlar yozib chiqiladi.

“Pomodoro” texnikasidan foydalanishning afzalliklari:

-Statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, biror bir loyihani amalga oshirishda eng katta to‘siq bu o‘z-o‘zini nazorat qila olmaslikdir. Yuqoridagi metod orqali qisqa vaqt ichida kichik vazifalarni bajarishingiz kerak. Bu esa odatdagi zo‘r berib ishlashdan ancha osonroq va nazorat qilishga qulay hisoblanadi.

-Ish jarayonida sizga xalal beruvchi va chalg‘ituvchi mayda detallar aslida siz o‘ylaganizdan ko‘proq vaqt va diqqatingizni olib qo‘yadi. “Pomidor” texnikasi orqali siz tashqi chalg‘ishlarni ham nazorat qilishingiz mumkin. Taymerni 25 daqiqaga qo‘yib ishga kirishganizda o‘zi shundoq ham kam vaqt sizga boshqa tashqi omillarga chalg‘imaslik kerakligini eslatib turadi. Xar bir “pomodoro” dan keyin qilinadigan 5 daqiqalik tanaffus esa, diqqatingizni yana ishga jamlab olish uchun sharoit yaratib beradi.

-Bu metod insonlarni vaqtni qadrlashga o‘rgatadi. Shuningdek, bu jarayon orqali siz o‘z imkoniyatlaringiz haqida chuqurroq bilib olasiz. Bir necha kunlik

mashg'ulotlar natijasida ma'lum bir ishni uddalash uchun sizga nechta "pomodoro" kerak bo'lishini aniq bilib olasiz.

- "Pomidor" texnikasi insonlarni mukammallikka o'rgatadi. Bunda har bir "pomodoro" yangi bir imkoniyat, avvalgisida qilgan kamchilik va xatolarni keyingisida to'g'irlab, samaradorlikni yanada oshirib borishingizga yordam beradi.

- Shu bilan birga, bu texnika orqali balansni saqlash o'rganiladi. Siz o'z vazifalaringizga qancha vaqt ajratasiz, qancha vaqt oila, sog'lik, o'zingizni anglash va dam olishga bag'ishlaysiz. Bu texnika vaqtingizni teng ravishda boshqarishda juda samaralidir.

Kaizen-yaponcha "yaxshi tomonga o'zgarish" yoki "doimiy takomillashib borish" ma'nolarini anglatadi. Bu atama dastlab Yaponiya biznes maktablarida har bir ishchi va operatsiyani doimiy takomillashtirib borish jarayoni uchun ishlatilgan. Hozirgi kunda Kaizen boshqa ko'plab sohalar, xususan, shaxsiy rivojlanishni tushuntirishda ham keng qo'llaniladi.

Shaxsiy rivojlanish jarayonida, Kaizen – bir martalik va birdaniga ko'p kuch talab qiluvchi harakatlar emas, balki, bosqichma-bosqich, asta-sekinlik bilan hayotimizni yaxshilashga qaratilgan va uzoqni ko'zlab qilinadigan harakatlardir.

Yaponlarning fikricha shaxsiy rivojlanish uchun eng maqbul yo'l – kichik o'zgarishlarni bosqichma-bosqich va doimiy ravishda hayotga tatbiq qilib borishdir.

Ko'p insonlarda muvaffaqiyat yoki katta o'zgarishlar odatda ulkan tashabbus orqali vujudga keladi degan aldamchi faraz mavjud. Aslida, katta muvaffaqiyatlar uzoq vaqt davomida izchillik bilan bosqichma-bosqich amalga oshirilgan harakatlar natijasi hisoblanadi. Kaizen muvaffaqiyatga erishish jarayonining eng realistik ko'rinishidir. Bu yaponlarning barqaror va tunganmas muvaffaqiyatga erishish falsafasi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Brain Tracy. Time management (The Brian Tracy Success Library): American Management Association, 2008-1-1.-138 P.
2. GOKARAJU RANGARAJU. Time management: Institute of Engineering and Technology/ India, 1997. 12 C.
3. Devin Allen. Getting things done: New-York 2001, 267 P.
4. Автореферат: НИЗАМОВА ЧУЛПАН ИЛЬДАРОВНА. РАЗВИТИЕ САМООРГАНИЗАЦИИ СТУДЕНТОВ В УЧЕБНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ С ПРИМЕНЕНИЕМ ТЕХНОЛОГИИ ТАЙМ-МЕНЕДЖМЕНТ: Казань – 2021.
5. Стивен Р.Кови. Муваффақиятли инсонларнинг 7 кўникмаси (Шахсий камолотнинг кудратли қуроли): "Ofset-print" МЧЖ, "Nihol" нашриёти, 2020. 380 б.